

## ROSSIYANING O'RTA OSIYO XONLIKHLARI BILAN IQTISODIY VA SIYOSIY ALOQALARI

Rasulova Dilshoda

*Termiz shaxar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi Tarix fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi XVI-XVII asrlardagi iqtisodiy-siyosiy aloqalari tahliliy jihatdan yoritib o'tilgan.

**Kalit So'zlar:** Rassiya, O'rta Osiyo, Xiva, Qo'qon, Buxoro, Angliya, Hindiston, Sharq, Kaspiy, Orenburg, Sibir, Mang'ishloq, Pyotr, Solovyov, Bartold, Ziyoyev

Rossiya va O'rta Osiyo masalasida ko'plab asarlar mavjud bo'lib, S.M.Solovyov o'zining 29 tomdan iborat "Rossiyaning qadimdan boshlab tarixi" nomli asarida Rossiya va O'rta Osiyo o'zaro aloqalari masalalariga bag'ishlagan. S.M.Solovyovning ta'kidlashicha Chor Rossiyasi bu davrda katta mablag'ga muhtoj bo'lган. Shu sababli Pyotr I O'rta Osyoning taabiy boyliklariga ko'z olaytirgani haqida ma'lumotlar keltirilgan<sup>21</sup>.

V.V.Bartold o'zining Sharq tarixini o'rganishga bag'ishlagan ilmiy ishlarida Rossiya va O'rta Osiyo aloqalarida asosiy e'tibor Rossiyaning Kaspiy dengizidan sharqqa joylashgan mamlakatlarga siyosiy va iqtisodiy jihatdan e'tibor qaratishi XVII-XVIII asrlarga to'g'ri keladi<sup>22</sup>.

V.Dubovitskiy o'zining ilmiy izlanishida Rossiya va O'rta Osiyo o'rtasidagi munosabatlarning birinchi bosqichi VIII-IX asrlarda boshlangan bo'lib, XVII asrgacha davom etgan. Ikkinci davri Pyotr I davriga to'g'ri kelib, uning maqsadi Hindistonga olib boruvchi yo'l deb qaraganligini ta'kidlaydi<sup>23</sup>.

X.Z.Ziyoyev tadqiqotlarini XVI-XIX asrlarda O'rta va Sibir iqtisodiy aloqalariga bag'ishlagan bo'lib, XVII asrning ikkinchi yarmida Rossiya savdo aloqalarida Sibrning janubiy tarmog'i Rossiyaning Yevropa qismidagi savdo aloqalariga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etgan<sup>24</sup>.

X.G'ulomov o'z maqolasida F.Benevinening Buxoroga kelishini Pyotr I ning Sharqdagi muhim siyosati bo'lib, uning maqsadi Rossiyaning Sharqdagi siyosatini yanada mustahkamlash, eng avvalo Kaspiy dengizi hududida o'z mavqeini tiklash, O'rta

<sup>21</sup> Соловьев С М Сочинения М, 1993

<sup>22</sup> Бартольд В В Сочинения М, 1977 Т.9.

<sup>23</sup> Дубовицкий В Русские в Средней Азии // Москва 1991

<sup>24</sup> Зияев З Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI – XIX вв Ташкент, 1983.

Osiyo xonliklari va qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlashdan iborat bo'lgan.

Buxoro va Rossiya iqtisodiy va siyosiy munosabatlar XVI asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Buxoro xoni Abdullaxon II Rossiya podshosi Ivan Grozniy bilan siyosiy aloqalarni yo'lga qo'yadi. Rossiyaning Qozon xonligi, Hojitarxon xonligi, Volga bo'yлari va G'arbiy Sibir hududlarining egallanishi, Buxoroning Rossiya orqali Yevropa davlatlari bilan, Rossiya esa Buxoro xonligi orqali Hindiston bilan savdo qilishiga imkon beradi.

Rossiya va O'rta Osiyo savdo va diplomatik aloqalari ikki yo'l orqali olib borilgan. Birinchisi "Janubiy-Sharqiy savdo yo'li" va "Sibir savdo yo'li"dir. A.Chuloshnikovning ta'kidlashicha, XVI-XVII asrlarda Sharqiy Kaspiy dengizi qirg'og'ida ikkita pristan Kabakli va Qoragan pristanlari bo'lgan. Bu ikki pristan O'rta Osiyo va Moskva davlatlari o'rtaсидаги savdo yo'li dengiz va quruqlik yo'liga ajratilgan.

Rus davlati ayni vaqtda O'rta Osiyodagi tabiiy boyliklardan foydalanishga harakat qilgan. Bunga Rossiyaning chet mamlakatlar bilan tinimsiz urush olib borishi harajatning ko'payishiga sabab bo'lgan. Pyotr I senatda "Pulni imkon boricha ko'p yig'ish kerak, hozir pul urushning qon tomiridir" – deb ko'rsatma bergen. Davlat xarajatlarini oltin va kumush konlarini qidirib topish bilan qoplash maqsadida O'rta Osiyoga maxsus ekspeditsiyalar tashkil etadi. Pyotr I buyrug'I bilan 1715-yilda polkovnik Ivan Buxgolts, 1717-yilda Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi O'rta Osiyoga yuboriladi. Ammo ikki ekspeditsiya muvaffaqiyatsiz yakun topadi.

Pyotr I Kaspiy qirg'oqlarini Erondan urishib olgandan keyin "ulug' davlatchilik" g'oyasi paydo bo'lib, shunday degan: Astroboddan Balxga va Badaxshonga 12 kunlik yo'l. Buxoro barcha Sharq savdosining markazi. U tomonlarga boradigan yo'llarga hech kim to'siq bo'la olmaydi. Binobarin, u Eron orqali ham Turkistonni o'z ta'sir doirasiga olishni rejalashtirgan. Pyotr I ning eng yaqin odamlaridan biri Voliniskiyning esdaligiga ko'ra, Pyotr I faqat Eronni emas, balki Hindistondan Xitoygacha bo'lган yerlarni egallash niyati bo'lgan.

Pyotr I o'limidan keyin ham O'rta Osiyo bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarni kuchaytirish va hududiy jihatdan unga yaqinlashib borish davom etdi. 1731-yil Kichik Juz va 1731-1740-yillarda O'rta juzning Rossiya tasarrufiga qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga siyosiy tazyig'ini yanada kuchaytirdi. Orenburg (1736), Troitsk, Petropavlovsk (1752) va Buxtarminsk (1763) kabi xarbiy qal'alarning qurilishi va muhim savso markaziga aylanib borishi Rossiyaning O'rta Osiyoga ta'sirining kuchayishi va savdoning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Sharq, shuningdek O'rta Osiyo savdo mollariga 5% bojxona solig'i joriy qilingan. Keyinchalik bu to'lov 10% gacha ko'tarilgan. Rus

imperatori tomonidan 1807-yil 1-yanvarda qabul qilingan “Podsho manifesti” ga ko’ra O’rta Osiyolik savdogarlarning yevropalik savdogarlar bilan savdo qilishi taqiqlangan.

XVII asr o`rtalarida Sibirda bo`lgan sayohatchilardan biri Tobolskdagi buxoroliklarning do`konlarini quyidagicha bayon etgan: “Buxoroliklar paxtani katta-katta bo`z qoplarda sotadilar. Bundan tashqari ular paxta ipidan to`qilgan gazlamalar, zarbof matolar, atlas, yo`l-yo`l shoyilar, shuningdek qalampir, qimmatbaho toshlar va boshqa narsalar sotadilar”. O’rta Osiyo va Rossiya o`rtasidagi savdo aloqalarida XVIII asrda ham Buxoroning yetakchi o`rin egallaganini ko`rish mumkin.

### **Xulosa.**

O’rta Osiyo xonliklari va Rossiya imperiyasi o`rtasidagi iqtisodiy-siyosiy aloqalar XVI-XVII asrlardan boshlangan bo’lib, o’zaro manfaatlar ikki tomon uchun ham foydali bo’lgan. Yevropaning rivojlangan davlatlariga nisbatan Rossiya ishlab chiqargan mahsulotlar sifati pastligi bilan farq qilgan. Ma’lumki O’rta Osiyo xonliklarining qo’shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari qanchalik zarur va ahamiyatli bo’lmasin, bu aloqalar ichki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda barqarorlik yo’qligi tufayli transit savdo uchun yaxshi imkoniyatlar ochib bera olmagan. Zero, transit savdo O’rta Osiyo uchun muhim ro’l o’ynardi. Shu bilan bирgalikda, so’ngi o’rta asrlarda – jahon savdo yo’llarining o’zgarishi, buyuk geografik kashfiyotlar, Eronning doimiy ravishda Turkiya va O’rta Osiyo xonliklari bilan xarbiy ziddiyatlari, XVI asrdan boshlab O’rta Osiyodagi siyosiy beqarorlik uning siyosiy mavqeigaputur yetkazgan. Shuning uchun XVI asrdan boshlab o’rta Osiyo Rossiya bilan savdo aloqalaridan ko’proq va ishonchliroq manfaatdor bo’la boshlagan. Asta-sekin Moskva davlati O’rta Osiyoning tashqi savdosida muhim ro’l o’ynay boshlaydi.

Ikkinci tomondan, g’arbda kapitalistik munosabatlarning paydo bo’lishi va rivojlanishi Yevropa davlatlarining Sharq davlatlariga yaqinlashuviga sabab bo’ldi.

Rossiya imperiyasi imperatorlikni Uzoq Sharq va Markaziy Osiyoda kengaytirmoqchi edi. Rus tarixida boshlangan ushbu jarayonni Nikolay I aytgan quyidagi so`z bilan izohlanadi “Imperator burguti qayerda uchib o’tgan bo’lsa, uni hech qachon pasaytirmaslik kerak”. 1850-yili O’rta Osiyoda rus kengayishining yangi davri boshlanadi. Buni biz O’rta Osiyoni bosib olinishi harakatlarini boshlanishida ko`rishimiz mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Дубовицкий В Русские в Средней Азии // Москва 1991
2. Зияев Z Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI – XIX вв Ташкент, 1983
3. Соловьёв С М СочиненияМ, 1993
4. Бартольд В ВСочинения М, 1977 Т.9.
5. Эрқўзиев А.А. Ўрта Осиё ва Фарбий Европа ўртасидаги иқтисодий алоқалар (XVI – XIX асрнинг биринчи ярми): Тарих фан. номз. дисс... – Т.: ЎзМУ, 2009. – Б. 38
6. Madeline Lazer. Why They Played: The British and Russian Motivations for Expansion in Nineteenth-Century Central Asia. Senior Honors Thesis, George Washington University. 2005. – Р 17.
7. Содиков Х. Шамсутдинов Р.Ўзбекистоннинг янги тарихи.1-китоб.-Т.: Sharq. 2000. – Б 65.
8. Richard Pierce, Russian Central Asia, 1867-1917: A Study in Colonial Rule (Berkley: University of California Press, 1960): 3-4.
9. John L. Evans, "Introduction," in Mission of N. P. Ignat'ev to Khiva and Bukhara, 1858 by Nikolai Pavlovich Ignat'ev (Newtonville, MA: Oriental Research Partners, 1984): – Р 5. 16 XIX asrning 30 – 40-yillarida Buxoro xonligi bilan Rossiya